

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**XASANOVA YULDUZ MUXTOR QIZI**

**SHARQ VA G‘ARB ERTAK JANRI NAMUNALARIDA “AXLOQ”  
MOTIVINING BADIY KONSEPTUALLASHUVI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Xasanova Yulduz Muxtor qizi**

Sharq va G‘arb ertak janri namunalarida “axloq” motivining badiiy  
konseptuallashuvi .....3

**Хасанова Юлдуз Мухтор кизи**

Художественная концептуализация мотива “морали” на примерах восточного  
и западного сказочного жанра .....23

**Khasanova Yulduz Mukhtor kizi**

Literary conceptualization of the motive “morality” in the examples of the eastern  
and western fairy-tale genre .....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....51

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**XASANOVA YULDUZ MUXTOR QIZI**

**SHARQ VA G‘ARB ERTAK JANRI NAMUNALARIDA “AXLOQ”  
MOTIVINING BADIY KONSEPTUALLASHUVI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1998 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengashning veb-sahifasida [www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'rayeva Malohat Muhammadovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qarshibayeva Uljan Davirovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Djumayeva Nozima Djuraboyevna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks (998966) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusininig dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahon tilshunosligida Sharq va G'arb xalq ertaklarini qiyosiy tahlil qilish hamda lingvomadaniyatshunoslik bilan bog'liq bo'lgan "axloq" motivini aks ettiruvchi til birliklarini lisoniy, nutqiy, madaniy va milliy mentalitet nuqtai nazaridan o'rganish masalasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli xalqlarning madaniy va ma'naviy boyliklari bilan tanishish, bir-biri bilan qiyoslash milliy merosga o'zgacha ko'z bilan qarashni taqozo etadi hamda tahlil qilishga imkon beradi. Zero, jahon ertaklarini har tomonlama ilmiy, nazariy va amaliy tadqiq etish milliy madaniyatning serqirra jihatlarini yanada chuqurroq anglashda muhim o'rin tutadi. Bu borada folklor namunalari matnining syujetini tashkil etuvchi "motiv" tushunchasini badiiy jihatdan konsept sifatida o'rganish, Sharq va G'arb ertaklarida "axloq" motivining badiiy konseptuallashuvining o'ziga xos qirralarini ochish hamda nazariy asoslarini tadqiq etish ishning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida olamning lisoniy voqelanishining kognitiv mexanizmlari tadqiqoti doirasida ma'lum tematik maydonga tegishli til birliklari, jumladan, Sharq va G'arb ertaklari syujetining asosiy qismini tashkil etgan "axloq" motivining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini chog'ishtirma tilshunoslik hamda badiiy konseptual tushunchalari asosida tahlil etish kabi ustuvor yo'nalishlarda izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jadal rivojlanib kelayotgan hozirgi zamon tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida tillarni chog'ishtirma tadqiq etish masalasi borasida muvaffaqiyatli izlanishlar olib borilayotganligi quvonarli holdir. Qolaversa, "ertak" atamasini adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish, motivlarning turli jihatlarini yanada kengroq ilmiy asoslash, ertaklaridagi milliylik, umumiylik, xususiylik, o'xshashlik, farqli jihatlarining "axloq" motivida uyg'unlashuvining yoritilishi hamda konseptual tahlil qilish ifodalangan fikr-mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi.

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy tilshunoslik fanida til va nutq tizimlarini zamonaviy tamoyillar doirasida ko'rib chiqish, jahon ilmi ilg'or g'oyalarini ijodiy o'zlashtirish tajribasini yanada rivojlantiradi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart"<sup>1</sup>ligi til va adabiyot sohalaridagi izlanishlarni nazariy hamda amaliy jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarilish uchun ilhomlantiradi. Yangi O'zbekistonning turli mamlakatlar bilan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha keng qamrovli hamkorligining tobora mustahkamlanishi, qardosh va noqardosh bo'lgan tillarni mukammal o'rganish, til sohiblarining madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari bilan yaqindan tanishish, turli millat vakillarining dunyoqarashidagi o'ziga xos bo'lgan jihatlarini kashf etish, mamlakatimiz uchun samarali va manfaatli bo'lgan xalqaro miqyosidagi aloqalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori// PQ-3775-son, 05.06.2018. URL: [lex.uz/docs/3765586](http://lex.uz/docs/3765586);

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-son “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon folklorshunosligi taraqqiyotida ertak janrini ilmiy asosda tadqiq etish bo‘yicha jahon va rus olimlaridan E.Donoghue, L.Andreu, A.Aarne, S.Tompson, A.H.Heiner, J.J.Lizka, N.Rove, J.Zipes, V.Y.Propplar<sup>2</sup>larning tadqiqotlari alohida e’tiborga molik.

O‘zbek ertaklariga bo‘lgan ilmiy e’tibor XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelib, o‘zbek folklorshunosligida ertaklar xususida yaratilgan dastlabki yirik tadqiqotlardan biri M.Afzalovning “O‘zbek xalq ertaklari haqida” deb nomlanuvchi monografiyasi hisoblanadi. Keyinchalik bu faoliyatni K.Imomov, G‘.Jalolov, X.Egamov, M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva<sup>3</sup> kabi olimlar davom ettirishdi. Shu bilan bir qatorda, xalq og‘zaki ijodida ertak janrini o‘rganish bo‘yicha hamda chog‘ishtirma tilshunoslik kesimida M.Jo‘rayeva, S.Jumayeva, M.Sodiqova, Z.Rasulova, N.Nazarova, S.Q‘o‘chqorova, J.Eshonqulov, O.Qayumov<sup>4</sup> tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalar ilmiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>2</sup> Donoghue E. *Kissing the Witch: Old Tales in New Skins*. – Harper Teen, 1999. – 228 p.; Andrew Lang. *The blue fairy book*. – London, 1991. – 35 p.; Aarne A., Thompson S. *The Types of the Folktale*. – Helsinki, 1961. – 588 p.; Heiner A.H. *Cinderella Tales from Around the World*. – Createspace, 2012. – 830 p.; Lizka J.J. *The Semiotic of Myth, a Critical Study of the Symbol*. – Indiana, 1989. – 102 p.; Rowe N. *The ambitious stepmother. A collection of the best English plays chosen out of all the best authors*. – London, 1720. – 53 p.; Zipes J. *The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre*. – Princeton, 2012. – 235 p.; Пропп В.Я. *Фольклор. Литература. История. Собрание трудов*. – Москва, 2002. – 52 с.;

<sup>3</sup> Afzalov M. *O‘zbek xalq ertaklari haqida*. – Toshkent: Fan, 1964. – 68 b.; Imomov K. *O‘zbek xalq satirik ertaklari*. – Toshkent: Fan, 1974 – 156 b.; Imomov K., Mirzayev.T, Sarimsoqov B., Safarov O. *O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik*. – Toshkent, 1990. – 187 b.; Jalolov G‘. *O‘zbek folklorshunosligida janrlar motivi*. – Toshkent, 1979. 234 b.; Egamov X. *Sovet Sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an‘analari aloqalari tarixidan ocherklar*. – Toshkent, 1982. – 289 b.; Jo‘rayev M. *O‘zbek xalq ertaklarida “sehrli” raqamlar*. – Toshkent: Fan, 1991. – 152 b.; O‘rayeva D.S. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. – Toshkent: Fan, 2010. – 216 b.;

<sup>4</sup> Jo‘rayeva M.M. *Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvo-kognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari*. Diss. fil. fan. dok. – Toshkent, 2017. – 36 b.; Jumayeva S.Ch. *Hayvonlar haqidagi ertaklarning genetik asoslari va spetsifikasi: Avtoref. filol. fan. nomz.* – Toshkent, 1996. – 26 b.; Sodiqova M.A. *O‘gay qiz tipidagi turkum ertaklarning spetsifikasi, genezisi va badiiyati: Avtoref. filol. fan. nomz.* – Toshkent, 2003. – 24 b.; Rasulova Z.J. *O‘zbek xalq sehrli ertaklarida “g‘aroyib predmetlar” (spetsifikasi, genezisi va badiiyati): Avtoref. filol. fan. nomz.* – Toshkent, 2009. – 24 b.; Nazarova N.B. *O‘zbek va Ingliz ertak diskursining lisoniy-madaniy va*

Olima M.Jo‘rayeva fransuz va o‘zbek ertaklaridagi modallik kategoriyasining lingvokognitiv va milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa, S.Qo‘chqorova o‘z tadqiqotida ushbu ikki noqardosh tillar ertaklaridagi madaniy ramz sifatida keladigan “g‘aroyibot” kategoriyasining lingvosemiotik tadqiqini amalga oshirgan. N.Nazarova o‘zbek va ingliz ertak diskursining pragmatistik jihatlarini hamda ularning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilgan.

Xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lgan ertaklar syujetini va ulardagi takroriy uchraydigan motivlarni turli xalqlarning o‘ziga xos azaliy milliy qadryatlari, urf-odatlarini, turmush-tarzi va madaniy jihatlarini bilan o‘zaro aloqasini yanada kengroq ilmiy asosda ochib berish, ertaklarning kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohalarining obyekt sifatida o‘rganilishini taqozo qilgan. Xususan, g‘arb olimlaridan O.A.Plaxova, E.U.Laskavseva, V.Y.Propp, I.V.Pavlyutenkova, N.A.Akimenko, D.S.Gasanova, D.V.Berejkova, L.V.Epoyeva, M.V.Ivchenkoning<sup>5</sup> tadqiqotlarini misol qilishimiz mumkin. Jumladan, rus olimi L.V.Epoyeva ingliz va rus tillaridagi sehrli ertaklarning lingvomadaniy xususiyatini namoyon etish bilan bir qatorda, ertaklarning leksik-semantik tasnifini asoslashni maqsad qilgan.

Ertak va motivlar xususiyati keng o‘rganilganiga qaramay, hozirgacha ertakning mazmuni va ko‘lami haqida hamda motiv haqida yagona to‘xtamga kelingan emas. Zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, biroq, Sharq va G‘arb ertaklari sujetining asosiy qismini tashkil etgan “axloq” motivining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyoslab o‘rganilishi lisonning yanada universalligini namoyon qilishga yordamlashadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Ushbu tadqiqot ishi Navoiy davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrasining “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik masalalari hamda leksikografiya va terminologiya muammolari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Sharq va G‘arb ertak janri namunalarida “axloq” motivining badiiy-konseptual xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, har biriga xos mushtarak va farqli jihatlarini asoslashdan iborat.

---

pragmatistik xususiyatlari: Avtoref. filol. fan. bo‘y. fal. dok. – Samarqand, 2024. – 30 b.; Qo‘chqorova S.T. O‘zbek va Fransuz ertaklarida madaniy ramzlarning kommunikativ-pragmatik roli: Avtoref. filol. fan. bo‘y. fal. dok. – Samarqand, 2022. – 29 b.; Eshonqulov J.S. O‘zbek folklorida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini: Avtoref. filol. fan. nomz. – Toshkent, 1996. – 24 b.; Qayumov O.S. O‘zbek folklorida pari obrazi (genezisi va poetikasi). Diss. filol. fan. nomz. – Toshkent, 1999. – 21 b.;

<sup>5</sup> Плахова О.А. Английские сказки в этнолингвистическом аспекте. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2007; Ласкавцева Е.Ю. Лингвокультурологические характеристики русской и немецкой народной сказки. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Краснодар, 2001; Пропп В.Я. Русская сказка // собрание трудов. – Москва: Лабиринт, 2000. – 416 с.; Павлютенкова И.В. Сказка: философско - культурологический анализ. Автореф. дисс. канд. философ. наук. – Ростов - на - Дону, 2003; Акименко Н.А. Лингвокультурные характеристики англоязычного сказочного дискурса. Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Волгоград, 2005; Гасанова Д.С. Лингвокультурологические и структурно-семантические особенности языка сказки (на материале лезгинского, русского и английского языков). Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Махачкала, 2013; Бережкова Д.В. Понятие «доброта» в концептуальном пространстве английской народной сказки: Автореф. дисс. канд. филол. наук: № 10.02.04. – Москва: МГУ, 2011. – 26 с.; Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки. Автореф. дисс. канд. филолог. наук. – Краснодар, 2007. – 29 с.; Ивченко М.В. Функционально-Семантические и лингвокультурологические особенности вербали-зованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах. Автореф. дисс. канд. филолог. наук. – Ростов - на - Дону, 2010. – 32 с.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

“ertak”, “motiv” va “axloq” motivi nazariyalarini tahlil etish hamda “axloq” motivining semantik ko‘lamini aniqlash;

Sharq va G‘arb ertaklarida o‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan motivlarni o‘rganish hamda ular orasidagi milliy mentalitetning ifodalanishini yoritish;

Sharq va G‘arb ertaklarida “axloq” motivining qahramon timsolida verballashuvi, sehrlil ertaklarda “axloq” motivining milliy-madaniy konseptuallashuvini asoslash;

hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvon obrazi orqali ifodalangan “axloq” motivini hosil qiluvchi usul va unsurlarni badiiy-konseptual tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ertak janri namunalaridagi “axloq” motivini ifodalovchi lisoniy birliklar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ertaklardagi “axloq” motivining badiiy-konseptual xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida lingvistik tavsiflash, tasvirlash va tasniflash, kontekstual, chog‘ishtirma-tipologik, leksik-semantik va badiiy-konseptual tahlil metodlaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ertaklarda “axloq” motivining motivatsion maydonini hosil qiluvchi yadro va periferiyalar (xulq-atvor motivlari, amallar, harakatlar) tahlilga tortilgan hamda “axloq” motivining semantik ko‘lami aniqlangan;

Sharq va G‘arb ertaklaridagi o‘xshash (mushkul vaziyatlarda oqilona fikr yuritish, sabr-qanoatli bo‘lish, mehnatsevarlik, shirinso‘zlik, ota-onani, yoshi ulug‘larni hurmat qilish, sadoqatli bo‘lish) va farqli motivlar (befahmlik, tanballikning oqibati ijobiy yakun topishi; boylikka ruju qo‘yish illatining ezgulik bilan tugashi) tahlil qilingan;

Sharq va G‘arb ertaklarida “axloq” motivining qahramon timsolida verballashuvi hamda sehrlil ertaklarda “axloq” motivining milliy-madaniy konseptuallashuvi dalillangan;

hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvon obrazi orqali “axloq” motivini shakllantiruvchi leksik birliklarning (ehson (yaxshilik qilish), kechirimli bo‘lish, rostgo‘ylik, donolik, mardlik, halollik ) konseptual belgilari ochib berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sharq va G‘arb ertak janri namunalarida “axloq” motivining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, ularga xos bo‘lgan jihatlarni qiyosiy tahlil qilish natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek va ingliz tili leksikologiyasi, adabiyotshunoslik nazariyasi, qiyosiy tilshunoslik, linvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik nazariyasi sohalariga oid maxsus seminarlarni nazariy qarashlar bilan boyitishi va ularning rivoji uchun ahamiyatli bo‘lgan o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilishi, shuningdek, ushbu mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan;

Sharq va G‘arb xalqlari ertak janri namunalarida “axloq” motivining badiiy konseptuallashuvi qiyosiy tahlil namunalarida o‘z aksini topgan va ushbu namunalar asosida “axloq” motivining semantik ko‘lami aniqlanib, ular yuzasidan bir qator nazariy va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar qiyosiy-tipologik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "axloq" motivining konseptual nuqtai nazaridan tadqiq qilish, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslik va adabiyotshunoslikning semasiologiya, leksikologiya, lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrizmga oid qator muammolar yechimini izlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy o'quv yurtlarida o'zbek va ingliz tili leksikologiyasi, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, xalqaro madaniy aloqa, stilistika fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko'rinishdagi o'quv qo'llanmalari yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda manba xizmatini o'tashi mumkinligi bilan asoslanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Sharq va G'arb ertak janri namunalarida "axloq" motivining badiiy konseptuallashuvi mavzusi yuzasidan chiqarilgan ilmiy natijalar asosida:

Sharq va G'arb ertak janri namunalarida "axloq" motivining badiiy konseptuallashuvi jarayonida aniqlangan motivatsion maydonni hosil qiluvchi yadro va periferiyalarga (xulq-atvor motivlari, amallar, harakatlar) hamda "axloq" motivining semantik ko'lamiga doir nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan "FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 6-may № 176-son ma'lumotnomasi). Natijada, adabiyotshunoslik va zamonaviy tilshunoslikka doir nazariy va amaliy mashg'ulotlarni hamda maxsus seminarlarni tashkil qilishda foydalanish imkoni yaratilgan;

qiyoslanayotgan Sharq va G'arb ertaklarida aniqlangan o'xshash (mushkul vaziyatlarda oqilona fikr yuritish, sabr-qanoatli bo'lish, mehnatsevarlik, shirinso'zlik, ota-onani, yoshi ulug'larni hurmat qilish, sadoqatli bo'lish) va farqli motivlarga (befahmlik, tanballikning oqibati ijobiy yakun topishi; boylikka ruju qo'yish illatining ezgulik bilan tugashi) doir nazariy xulosalardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR-3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 30-aprel № 04/1256 -son ma'lumotnomasi). Natijada, noqardosh millatlarga mansub bo'lgan ertaklarning syujet tarkibi, ayniqsa ulardagi eng muhim g'oyalar, yaxshilik

va yomonlikni ifodalovchi kuchlarning uyg'unligi qiyosiy planda tahlil qilinib, ertakdagi milliy mentalitetga mansub bo'lgan motivlarning o'zga millat adabiyotida takroriy uchrash hodisalari mavjudligi o'rganilgan;

Sharq va G'arb ertaklarida "axloq" motivining qahramon timsolida verballashuvi hamda sehrli ertaklarda "axloq" motivining milliy-madaniy konseptuallashuviga doir xulosalardan Britaniya Kengashining Advance HE dasturi asosida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamkorligidagi 2019-2022 yillarga mo'ljallangan Change academy xalqaro loyihasi doirasida Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan "INPRODEC" loyihasida samarali foydalanilgan (Navoiy davlat pedagogika institutining 2024-yil 16-sentabr № 88-87-5083/04 -son ma'lumotnomasi). Natijada, noqardosh millatlarga mansub bo'lgan folklor janri xususiyatlarini lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tishunoslik nuqtai nazaridan keng va chuqur tadqiq etish, zamonaviy tilshunoslik sohalarini yanada rivojlantirish hamda o'zbek tilshunosligining qiyosiy tahlil imkoniyatlarini yanada boyitish uchun muayyan hissa qo'shishi ta'kidlangan;

Sharq va G'arb hayvonlar haqidagi ertaklarda hayvon obrazi orqali "axloq" motivini shakllantiruvchi leksik birliklarning (ehson (yaxshilik qilish), kechirimli bo'lish, rostgo'ylik, donolik, mardlik, halollik ) badiiy-konseptual belgilariga doir nazariy xulosalardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida "Til – millat ko'zgusi", "Dolzarb mavzu", "Assalom yangi kun" teleko'rsatuvlari senariysini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 12-dekabrda № 01-02/198 -son ma'lumotnomasi). Natijada, turli millat xalq og'zaki ijodi namunalarining lingvomadaniy sohada keng o'rganilishi natijasida to'plangan ma'lumotlar asosida ko'rsatuv va eshittirishlar ma'rifiy va amaliy jihatdan boyitilgan, teleko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, 5 ta ilmiy tezis va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va

vazifalari tavsiflangan, tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, dissertatsiyaning joriy qilinganligi, muhokama qilinishi, nashr qilingan ishlar va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

**“Tadqiqotning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda folklorshunoslikda ertak janri xususida ilmiy-nazariy qarashlar o'rganilgan va bu boradagi fikrlarga munosabat bildirilgan, olam lisoniy manzarasida konseptuallashuv jarayonlarining kechishi, ertak va motiv tushunchalarining mohiyati haqida fikr yuritiladi.

Ma'lumki, folklor bu xalq og'zaki ijodi badiiy asarlar to'plami sifatida xalq hayotining turli elementlarini ifodalaydi, shuningdek, tarixiy elementlar hamda xalq hayotiga tegishli kundalik hodisalarni aks ettiradi.

“Folklor” atamasi ilk bora V.Toms tomonidan 1846-yilda termin sifatida muomalaga kiritilgan, ya'ni “folk” – xalq, “lore” – bilim, donolik, ya'ni “xalq donishmandligi” kabi tushunchalarni ifodalaydi<sup>6</sup>.

Mifologik fikrlashning o'ziga xos jihatlari haqidagi masalalar XIX asr tadqiqotchisi L.Levi-Bryul, mashhur shveysariyalik psixoloq K.G.Yung tomonidan ko'tarilgan bo'lib, olim ibtidoiy fikrlash haqidagi asarlariga tayangan holda jamoaviy tafakkur arxetiplari bilan afsonalarni aniqlagan<sup>7</sup>.

Folklor asosan xalq og'zaki ijodini anglatadi. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarga oid qadimiy sivilizatsiya vakillari, jumladan, shumerlar, assiriylar, misrliklar, yahudiy va fors xalqlaridan bizgacha yetib kelgan buyuk asarlar hozirda insoniyat madaniyatining noyob durdonalariga aylangan.

Bilamizki, xalq ertaklarida xayolot olami bilan bir qatorda xalq hayotining boshqa turli jihatlari haqida ma'lumotlar mavjud. Bu holat ilmiy jihatdan etnologlarning ham e'tiborini tortadi. Manbalarni o'rganib turib, ertaklar adabiyotning eng qadimiy shakllaridan biri bo'lib, u tasavvurni rivojlantirishi va atrofimizdagi dunyoni tushunishga yordam berishini kuzatish mumkin.

Ertaklarni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjud. “Dunyo xalqlari tarixi, etnografiyasi, din tarixi, tafakkur shakllari va badiiy shakllar tarixi, tilshunoslik, tarixiy poetika kontekstidan tashqarida ertakni tasavvur qilib bo'lmaydi”<sup>8</sup>.

Darhaqiqat, ertak – bu xalq og'zaki ijodining bir turidir. Ingliz ertakshunosi Djek Zaypsning fikricha: “Ertak obrazlari xuddi badiiy motivlar singari insonlarning ishonch-e'tiqodlari, orzulari asosida ular tafakkuridagi o'y-fikrlar mahsuli sifatida paydo bo'lgan”<sup>9</sup>.

Ertak atamasi M.Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida “*etuk*” tarzida qo'llanilgan<sup>10</sup>. Xalqimiz orasida hozirgi paytda ham *cho'pchak, utuk, matal, varsaga* kabi so'zlar ertak ma'nosini anglatadi.

Ma'lumki, ertaklarning ikkita asosiy turi – xalq ertaklari va mualliflik ertaklari mavjud. Xalq ertaklari va mualliflik ertaklari bir-biridan tematik, kompozitsion-

<sup>6</sup> <http://www.skase./Volumes/JTL01/v.pdf>.

<sup>7</sup> Леви-Брюль Л. Сверхъестественное в первобытном мышлении. – Москва: Педагогика-Пресс, 1994. – 608 с.; Юнг К.Г. Архетип и символ. – Москва: Ренессанс, 1991. – 98 с.

<sup>8</sup> Пропп В. Я. Фольклор. Литература. История. Собрание трудов. – Москва, 2002. – 217 с.

<sup>9</sup> Zipes J. The Irresistible Fairy Tale: The Cultural and Social History of a Genre. – Princeton, 2012. – 235 p.

<sup>10</sup> Qoshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk, birinchi tom. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1960. – 98 b.

struktur, majoziy va stilistik tarkibiga ko‘ra farq qiladi va o‘z navbatida hayvonlar haqidagi ertaklarga; maishiy; qo‘rqinchli va sehrli ertaklarga bo‘linadi.

O‘zbek xalq ertaklari haqidagi dastlabki yirik tadqiqot M.Afzalovning “O‘zbek xalq ertaklari haqida” nomli kitobi bo‘lib, unda ertak turlari, ulardagi motiv, ertak va doston munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Ertak termini O‘zbekistonning barcha viloyatlari aholisi uchun juda yaxshi tanish bo‘lsa-da, turli hudud vakillari ushbu janrga xos bo‘lgan asar turini har xil nomlar bilan atashgan. Masalan, Buxoro atrofidagi tuman-qishloqlarda, shuningdek boshqa yerlardagi ikki tilda (o‘zbek va tojik tillari) so‘zlashuvchi aholi o‘rtasida - *ushuk* deb ataladi, toshkentliklar - *cho‘pchak*, farg‘onaliklar - *matal*, xorazmliklar - *varsaqi* deyishsa, ba‘zi hududlarda - *o‘tirik*, *tatal* kabi atamalar ham uchraydi<sup>11</sup>.

Shuningdek, Alisher Navoiy g‘azalida ham “*cho‘rchak*” so‘zini shu ma‘nolarda uchramiz:

*“Habibim, husni vasfning o‘yla muhlik onglakim, bo‘lg‘ay,  
Qoshida qissayi Yusuf bir uyqu kelturur cho‘rchak”*<sup>12</sup>.

Olamning lisoniy manzarasi – ongimizdagi tasvirlar, borliq, tasavvurlarning konseptual tizimi haqidagi bilimlarning til orqali aks ettirilishidir. Rus olimi I.A.Ilin: “Til, bu – olamning birlamchi konseptuallashuvi va inson tajribasi ratsionallashuvining universal shakli, borliq haqidagi tafakkurda shakllangan bilimlarni ifodalash va ajdodlardan avlodlarga yetkazish vositasi, inson hayotidagi ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega voqealar haqidagi tarixiy xotiralardir. Xalq tili uning qalbi va ruhining o‘ziga xos badiiy libosidir”<sup>13</sup>, deb to‘g‘ri ta‘kidlaydi.

Birinchi bor fizika fanida G.Gers tomonidan qo‘llanilgan olam manzarasi terminiga olim quyidagicha ta‘rif beradi: “Olam manzarasi termini tashqi obyektlarning ichki obrazlari yig‘indisi hisoblanib, ushbu obrazlarning xatti-harakatlari to‘g‘risidagi mantiqiy mulohazalarni shakllantirishga xizmat qiladi”<sup>14</sup>. L.Vaysgerber tadqiqotida esa quyidagicha fikr bildirilgan: “Olamning lisoniy manzarasi o‘zida diniy, badiiyat tushunchalarini singdiradi va olamning lisoniy manzarasi kelajakda ilmiy manzara bilan taqqoslanish ehtimoli mavjuddir”<sup>15</sup>.

Ma‘lumki, *olam manzarasi* – bu subyektning atrof-olam, real yoki hayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuasi hisoblanadi. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo‘lgan dunyo – borliq – olam to‘g‘risidagi dastlabki bilimlar aynan tilda turg‘un shakllar ko‘rinishida saqlanib qolgan.

“Har qanday lisoniy birlikning ijtimoiy-madaniy mazmunining shakllanishi, albatta, mantiqiy-mental jarayonni bosib o‘tadi. Shu bilan birga, ma‘noning konseptual qismini inkor etib bo‘lmaydi. Konsept esa dastlab shaxsning lisoniy-mantiqiy faoliyati samarasidir. Konseptual bilimning muhimligi lisoniy belgilar ma‘nosini idrok etishda namoyon bo‘ladi”<sup>16</sup>. Shu o‘rinda tilshunos olim

<sup>11</sup> Qo‘chqorova S.T. Yevropa va o‘zbek xalq ertaklarining o‘rganilishiga oid //Xorijiy filologiya. №3, 2018. – 101 b.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. Nazoyinul maoniy. II tom. – Toshkent, 1959. – 327 b.

<sup>13</sup> Ильин И.А. Одинокий художник / Сост. предисл. и примеч. В.И. Белов. – Москва: Искусство, 1993. –174 с.

<sup>14</sup> Герц Г.Р. Принципы механики, изложенные в новой связи. – Москва, 1959. – 208 с.

<sup>15</sup> Витгенштейн Л. Избранные работы. – Москва: Издательский дом “Территория будущего”, 2005. – 440 с.;

Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 232 с.

<sup>16</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

Sh.Safarovning fikriga qo‘shilamiz, chunki lison mazmunining tarixiy rivojlanish jarayoni turli davrlarda shaxs tajribalari va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq.

Barcha ertak janrlari o‘ziga xos motivlarga ega. Taniqli rus filologi A.N.Veselovskiyning fikriga ko‘ra: “Motiv – bu eng oddiy hikoya birligi, elementar syujet yoki murakkab syujetning tarkibiy qismi”dir<sup>17</sup>. Hatti-harakatlar motivlari, ularni amalga oshirish bo‘yicha harakatlar rejasi va rejada ko‘rsatilgan harakatlar natijasi – bu motivatsiya jarayonini tashkil etuvchi tushunchalar uchligidir. V.Y.Proppning fikriga ko‘ra, “Motivni faqat syujet tizimida o‘rganish mumkin, syujetlarni esa faqat bir-biriga nisbatan munosabatlari orqali o‘rganish mumkin”<sup>18</sup>. Bu – nafaqat syujetlar, balki, avvalambor, motivlarni o‘rganish zarurligini anglatadi. Shu o‘rinda motiv to‘g‘risida qisqa fikr bildiradigan bo‘lsak: Motiv – bu takrorlanadigan element, ertakda ma‘lum bir ma‘noni yetkazish va emotsionallikni oshirish uchun ishlatiladigan ramzdir.

**“Sharq va g‘arb ertaklarida “axloq” motivining lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobda lingvomadaniyatshunoslikda “axloq” motivining semantik ko‘lami, Sharq va G‘arb ertaklarida “axloq” motivining qahramon timsolida verballashuvi hamda ertak motivlarining tuzilishi va ulardan ertak tizimida foydalanish tamoyillari masalalari yoritib berilgan.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui bo‘lib, xulq so‘zining ko‘pligi, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma‘nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda “axloq” tushunchasi jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlar majmuini ham aks ettiradi”<sup>19</sup>.

Darhaqiqat axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik deganidir, ya‘ni kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat hisoblanadi. “Axloq – ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, davr o‘zgarib borgani sari har qanday hodisa kabi axloq ham o‘zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma‘naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. Insonning fe‘l-atvori bilan bog‘liq axloqiy hodisa bo‘lib, kishi fe‘lining axloqiylik doirasida namoyon bo‘lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi hatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o‘z ichiga oladi”<sup>20</sup>.

*Axloq, xulq va atvor* so‘zlari arab tilidan olingan bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma‘nosida ishlatiladi. “Axloqda jamiyatda tarkib topgan “*yaxshilik*”, “*sharaf*”, “*vijdon*”, “*adolat*” singari tushunchalarda mustahkamlangan xulq atvor normalari aks etadi”<sup>21</sup>.

Inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj – “motiv” shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Motiv juda ko‘p fanlar, jumladan, psixologiya, adabiyot, musiqa, tasviriy san‘at, biologiya kabi sohalarning tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi.

<sup>17</sup> Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов. – Москва, 1940. – 301 с.

<sup>18</sup> Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1986. – 20 с.


<sup>19</sup> Isaqova Zamira. FALSAFA (axloqshunoslik, estetika, mantiq). – NamDU, 2016. – B.5

<sup>20</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/x/xulq/>

<sup>21</sup> <https://izoh.uz/word/axloq>

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda, motivlar semantikasida komponent tahlil metodlaridan foydalanish hamda umumiy va xususiy, mavhum va aniq, ijtimoiy va individual nisbatlarga dialektik yondashuvdan foydalanish tufayli motiv ma‘nosi muammosiga oid ushbu nuqtai nazar rivojlanib bormoqda.

Strukturaviy yondashuvning o‘ziga xos turlaridan biri bu “ko‘lam” yondashuvi bo‘lib, ushbu atama tilshunoslikda keng ma‘noda qo‘llaniladi, masalan, A.A. Reformatskiy ta‘rifiga ko‘ra, “leksik ko‘lam – har xil tushunchalar sohasi emas, balki parallellik (sinonimlar), qarama-qarshilik (antonimlar) va bog‘liqlik (so‘zlarning sinekdoxa va metonimik aloqalari) va eng muhimi, turli xil munosabatlar bilan birlashtirilgan leksika sohasidir. Faqatgina leksik ko‘lamda so‘z o‘z ma‘nosiga ega bo‘lishi mumkin”<sup>22</sup>. Ko‘lam tushunchasi XX asrda tilshunoslik sohasiga ham kirib kelgan. V.I.Suprun konsepsiyasida ko‘lam “yadroviy-periferik munosabatlarning mavjudligi, so‘zning o‘xshash semantik tuzilishini nazarda tutuvchi semantik umumiylik, takrorlanuvchanlik, stilistik rangdorlik, so‘z shakllantirishda faollik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadigan real lingvistik tuzilma”<sup>23</sup> sifatida ifodalanadi. Bu xususiyatlarning barchasi motivatsion ko‘lamda uchraydi. Motivlar ko‘lami kichik maydonlarga guruhlangan. Masalan, “axloq” motivi motivatsiyaning alohida kichik ko‘lamini tashkil etadi, bu yerda ularning tarqalishi ekstralingvistik omillar, ya‘ni: obyektning o‘lchami, shakli, ma‘lumlilik darajasi, shuningdek, motivatsion leksikasiga bog‘liq. Bu esa, chegaralari noaniq bo‘lgan motivatsion maydonning yadrosi va periferiyasini aniqlash imkonini beradi. Motivatsiyaning yadrosini keng konnotativ bog‘lanishli sinflarga bo‘lingan umumiy madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan motivlar tashkil etadi. Hududiy birlik qanchalik katta bo‘lsa, u yadro tomon shunchalik yo‘naladi. Motivatsion makonning periferiyasi kichikroq obyektlar bilan ifodalanadi. Bu mikromotivlarning barchasi motivatsion ahamiyatga ega, shu munosabat bilan obyektning ekstralingvistik ahamiyatiga qarab, periferiyani yaqin, uzoq va ekstremal zonalariga bo‘lish zarurati tug‘iladi. Motivatsion ko‘lamning markazida motivlar joylashgan bo‘lishi mumkin.



**2.1.1-rasm: Axloq motivi ko‘lamining yadro va periferiyasi**

<sup>22</sup> Реформатский А.А. Лингвистика и поэтика. – Москва, 1987. – 47 с.

<sup>23</sup> Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. – Волгоград: Перемена, 2000. – 16 с.

“Semantik maydon yadrosining o‘ziga xos xususiyati so‘zlarning asosiy motivatorlari bo‘lib xizmat qiladigan nominantning jismoniy xususiyatlari, ruhiy xususiyatlari, milliy va boshqa xususiyatlari haqida qo‘shimcha ma’lumotlarning mavjudligidir. Periferik qism nominantlarning qarindoshligi, tirik mavjudotlar, narsalar, hodisalar bilan aloqalari haqida ma’lumot beradi”<sup>24</sup>.

Ertakdagi axloq motivi bilan bog‘liq konseptual dominant, hatti-harakat odobi g‘oyasini ta’kidlaydi. Hatti-harakat odobi – bu arxaik tasvir deb tushuniladi, shuning uchun ertaklar matnlarida axloq motivini o‘rab turgan *harakat* va *amal* so‘zlari bilan ta’kidlangan turli xil jismoniy faoliyat fe‘llari mavjud. Birinchi o‘rinda harakat, shuningdek, ijtimoiy *hatti-harakat odobi* ham axloq motivi bilan chambarchas bog‘liq. “Axloq” motivi ham, albatta, madaniy jihatdan belgilangan, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik, e’tiqod, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy tuyg‘u, burch va ma’suliyatni his qilish kabi axloqiy sifat va madaniy dominantlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Chunki, an’anaviy jamiyatning tafakkur tizimida ushbu motiv o‘z o‘rniga ega. Tasavvurlar umumiy bo‘lib ko‘rinsada, har bir lingvomadaniyatda “axloq” motivi semantikasida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. S.G.Vorkachevning fikricha, “har qanday realiyaning madaniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni bu realiyaga inson qanday munosabatda ekanligiga qarab aniqlanadi”<sup>25</sup>.

Mavzuga oid nazariyalarni o‘rganar ekanmiz, ertaklardagi “axloq” motivi turli yo‘llar bilan ifodalanganligini kuzatamiz. Ularni qahramonlarning hatti-harakatlari va xayrli amallari, shuningdek, tashqi ko‘rinishi va ichki dunyosini tavsiflash orqali tasvirlash mumkin. Ertaklarda “axloq” motivi ma’lum bir ma’no va g‘oyani yetkazadigan ramzlar va ramziy harakatlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Ertaklarda axloq motivini ifodalash shakllaridan biri bu qahramon obrazlaridan belgi sifatida foydalanishdir. Ertaklarda ko‘pincha ma’lum g‘oyalar, his-tuyg‘ular yoki qadriyatlarining ramzi sifatida harakat qiladigan belgilar mavjud.

Misol uchun, *yalmog‘iz* yovuzlikni ramziylashtirishi, va *malika* aybsizlik yoki go‘zallik uchun belgi vazifasini o‘tashi mumkin: “*Zamonlarning zamonida, qadimal ayyomda bir zolim podshoh bor ekan. Podshohning bir qizi bor ekan, oti Malikai Husnobod ekan. Onasi bir kambag‘alning qizi ekan. Sohibjamolligi haddan ziyoda, oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor, shaq-shaqayi jamoli o‘n to‘rt kechali oyni xira qilar ekan. Suv ichsa tomog‘idan, sabzi yesa biqinidan ko‘rinar ekan*”<sup>26</sup>.

Bundan tashqari, ertaklardagi “axloq” motivlari sehrli elementlar va hodisalardan foydalanish orqali ham badiiy konseptual ma’no kasb etishi mumkin. “Sehrli motiv ertakka fantaziya elementini kiritadi va mo‘jizalar, inkonsiz narsalarni amalga oshirish g‘oyasini yetkazishga imkon beradi. Sehrli narsalar, sehrli mavjudotlar va sehrli afsunlar ertak qahramonlariga to‘siqlarni yengib, baxtga erishishga chorlaydi”<sup>27</sup>.

<sup>24</sup> Суперанская А.А. Соаремные русские фамилии. – Москва, 2009. – 56 с.

<sup>25</sup> Воркачев С.Г. Лингвокультурный концепт: типология и области бытования. – Волгоград: ВГУ, 2007. – 403 с.

<sup>26</sup> <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ertaklari/malikai-husnobod/>

<sup>27</sup> Kdirbayeva G.K. “Man” – “adam” konseptosferasi birliklarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari (ingliz va qoraqalpoq tillari misolida). Avtoref. filol. fan. fals. dok. – Toshkent, 2017. – 19 b.

## 2.1.1-jadval

### Sharq va G‘arb sehrli ertaklarida “axloq” motivining badiiy konseptuallashuvini shakllantirishga xizmat qiladigan sehrli buyum va obrazlarning tahlili

<b>Sharq sehrli ertaklarida uchraydigan tilsimli predmetlar va obrazlar</b>	
<b>Qaynar xumcha, ochil dasturxon, ur to‘qmoq (o‘zbek)</b>	Chol ketgandan so‘ng bolalar qiziqib: “Ur to‘qmoq”, -deb ko‘rishgan ekan, to‘qmoq hammasini ura boshlabdi. ... “Jon ota, to‘qmoqni to‘xtating, biz sizni xumchangizni, dasturxoningizni olib, o‘rniga boshqa xumcha, boshqa dasturxon qo‘ygan edik, tavba qildik, ota, to‘qmoqni to‘xtating,” -deyishibdi. (Ur to‘qmoq)
<b>Sehrli qalpoq/telpak; uchar gilam; sehrli kamon; sehrli jom (o‘zbek)</b>	Devlardan biri: - Biz to‘rttalimiz og‘a-ini bo‘lamiz. Otamdan bizga bir telpak, bir gilamcha, bir kamon, bir oltin jom meros qolgan. Shuni to‘rttalimiz to‘rt yildan beri bo‘lib ololmay janjaldamiz. – Bu narsalarning xosiyati zo‘r. (Mohistara)
<b>Qora sigir, temir ketmon (koreys)</b>	... Kxonchxi dalaga kelib endi ishni boshlaganda o‘gay onasi bergan yog‘och ketmon sinib qoldi. Kxonchxi qo‘rqqanidan qattiq yig‘ladi. Shunda to‘satdan uni oldida bir qora sigir -vafot etgan onasini ruhi – paydo bo‘ldi va qizga temir ketmon berdi. Temir ketmon bilan Kxonchxi butun dalani osongina va tezda ag‘darib chiqdi. (Kxonchxi va Pxatchxi)
<b>Xizr obrazi (o‘zbek)</b>	...Bola uyqusida ajoyib bir tush ko‘ribdi. Tushida ola chopon kiygan, o‘rta bo‘yli, oq soqolli bir mo‘ysafid kelib bolaning holini so‘rabdi. ... - “Yig‘lama, o‘g‘lim, senga yaxshilik qilaman, ...”-deb, bolaning qo‘yniga bir dona yong‘oq solib qo‘yibdi. (Hakim baliqchining o‘g‘li)
<b>Baqa (koreys)</b>	... To‘satdan yonida bir katta baqa sakrab kelib qoldi. – Hozir men senga yordam beraman, Kxonchxi! Baqa bir sakrab tubi teshik katta ko‘zaga tushdi va teshikni yopish uchun o‘sha yerga joylashib oldi va Kxonchxi hech qiynalmasdan ko‘zani og‘zigacha limmo-lim to‘ldirdi. (Kxonchxi va Pxatchxi)
<b>G‘arb sehrli ertaklarida uchraydigan tilsimli predmetlar</b>	
<b>Sehrli, qalpoqcha, sehrli yoping‘ich/palto, sehrli qilich va sehrli boshmoqchalar (ingliz)</b>	... “Yaxshi, ularni senga beraman, faqat bir o‘tinchim, sen ularni men uchun ehtiyot qil, chunki ular senga ko‘p as qotadi: palto seni ko‘rinmas qilib qo‘yadi, qalpoq esa senga mushkul vaziyatda yechim beradi, qilichning o‘tkir tig‘i istalgan narsani o‘sha ondayoq yakson qiladi va boshmoqchalar seni shiddatli tezlik sohibiga aylantiradi...” -dedi Ulkan Dev Jekka qarab. (Jack The Giant Killer)
<b>Bo‘ron kampir, sirli quduq, sehrli tandir, sehrli parto‘shak. (aka - uka Grimmlar)</b>	Kampir qizaloqni qo‘lidan ushlab, katta darvoza oldiga olib boribdi. Darvoza ochilgach qizning ustiga shovullab oltin yomg‘ir yog‘ibdi. Oltinlar qizga yopishib qolaveribdi... - Bu senga g‘o‘zal odobing va mehnating evaziga” – debdi Bo‘ron kampir va qizga quduqqa tushirib yuborgan urchug‘ini qaytarib beribdi. (Bo‘ron kampir)
<b>Sehrli taroq, to‘g‘nog‘ich, sehrli kolba (suv idish) (ingliz)</b>	“Tezroq, tezroq!” -qichqirdi devning qizi, “sochimdagi taroqni olib yerga tashleng”. Nix Nought Nothing uning sehrli tarog‘ini oldi-da yerga qarab otdi va shunda taroq devning yo‘lini tusuvchi qalin butazorga aylanadi. ... “endi meni soch to‘g‘nog‘ichimni olib yerga tashleng, tezroq bo‘ling!”... qizning soch to‘g‘nog‘ichini devning yo‘liga tashlab yuboradi va undan o‘tkir ustalaralar o‘sib chiqadi.(Nix Nought Nothing)

Yuqorida berilgan 2.1.1-jadvalda sharq va g'arb sehrli ertaklarida takroriy uchraydigan tilsimli buyumlar, sehr kuchiga ega obrazlar ezgulikni o'ziga maqsad qilgan ertak qahramonlariga xizmat qilish orqali, ertak syujetida turli-xil kichik axloqiy hatti-harakatlar motivlari zanjirini hosil qiladi va "axloq" motivining badiiy konseptuallashuviga xizmat qilganligini kuzatish mumkin.

Bir lingvokulturologik birlikning o'zi bir necha semiotik tizimga mansub bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, arxetipik va prototipik mazmunga ega bo'lib, mif, afsona, ertak, rasm-rusum, folklor va diniy matnlar, yana she'riy va nasriy badiiy matnlarda, iboralar, metaforalar, ramzlar va paremiyalarda uchraydi. Rasm-rusum stereotipi matalga o'tib, keyinchalik iboraga aylanadi. Ba'zan birgina lingvokulturologik birlik mif, matal va iboralar tarkibiga singib ketganligiga guvoh bo'lamiz.

## 2.1.2-jadval

### "Axloq" motivining semantik ko'lamidan joy oluvchi mavzuiy guruhlar

	<b>Mavzuiy guruhlar</b>	<b>O'zbek tilidagi mavzuiy guruhlarini voqelantiruvchi lingvomadaniy birliklar</b>	<b>Ingliz tilidagi mavzuiy guruhlarini voqelantiruvchi lingvomadaniy birliklar</b>
1.	hatti-harakat odobi	"ta'zim", "salom", "tashakkur"	"bowing", "greeting", "thanksgiving"
2.	yaxshilik va yomonlik	yaxshilik - adolat, mehribonlik, donolik; yovuzlik - ochko'zlik, shafqatsizlik, xudbinlik	good means justice, kindness, wisdom; and evil means greed, cruelty, selfishness
3.	yorug'lik va zulmat	yaxshilik, inoyat va haqiqat, zulmat va yovuzlik, sehrgarlik va yolg'on	goodness, grace and truth, darkness and evil, witchcraft and lies
4.	qiyinchiliklar-ni yengish va muvaffaqiyat-ga erishish	yaxshilik, yomonlik, adolat, saxiylik, mehnatsevarlik, do'stlik va mas'uliyat, halollik, mehribonlik, boshqalarni hurmat qilish	good, evil, justice, generosity, hard work, friendship and responsibility, honest, kindness, respect for others
5.	qadriyatlar va tamoyillar	yovuzlik, axloqsizlik, jazo	evil, immorality, punishment

Ertaklardagi axloq motivi semantik ko'lamining yuqorisidan joy olgan mavzuiy guruhlarini hali uzoq davom ettirish mumkin, zero, xalq ertaklari uchun material har doim xalqning hayoti bo'lib kelgan. Ertaklardagi axloq motivi semantik ko'lamida optimizm dominantlik qiladi, chunonchi, ko'pgina xalq ertaklari haqiqatning tantanasiga, yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasiga ishonch uyg'otadi.

Ertaklarda rang-barang epitetlar, taqqoslashlar, metafora, giperbola, frazeologik iboralarning mavjudligi tufayli nafaqat ijobiy bosh qahramonlar, balki vaxshiy yirtqich jonzotlarning ham yorqin, unutilmas, sehrli, ertagona tasvirlari yaratiladi. Bosh qahramon *uchala og'zi ochiq, tishlari o'tkir va ko'zlari yovuzlikdan yonayotgan uch boshli ajdarhoni* mag'lub etadi. Ertak so'zlovchilar maqollar, matallar va "jonli" so'zlashuv nutqi kabi ko'plab majoziy iboralardan

foydalanadilar. Quyidagi 1-jadvalda sharq va g‘arb ertaklarida uchraydigan turli tayanch motivlar orqali ertaklarda dominant bo‘lgan “axloq” motivining voqealanishini kuzatish mumkin:

### 2.2.1-jadval

#### Sharq va G‘arb ertaklarida “Axloq” motivining verballashuvi

Ertak nomi	“Axloq” motivi
Zumrad va Qimmat / Cinderella	Mehribonlik va sabr-toqat yaxshi natijalarga olib keladi.
Echki va uning bolalari / Three little pigs	Qattiq mehnat va rejalashtirish qobiliyati qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.
Kenja botir / How Jack went to seek his fortune	Jasurlik va silai rahm doimo g‘alaba qozonishga yordam beradi.
Yoriltosh / Red riding hood	Xavf-xatarlardan qochish uchun itoatkorlik va ehtiyotkorlik muhimdir.
